Qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni takomillashtirish



Rivojlanayotgan davlatlar qatorida yurtimizda ham qurilish sohasi koʻlami kengayib, taraqqiy topib bormoqda. Xususan, soʻnggi yetti yilda mamlakatimizda qariyb 100 milliard dollarlik qurilishlar boʻlgan. Bu sohadagi ishlar hajmi yiliga oʻrtacha 7-8 foiz oʻsmoqda[1].

[1] https://president.uz/uz/lists/view/7564.

Qurilishning jadal rivojlanishi, ko‘chmas mulkning xilma-xilligi va me’moriy dizayn yechimlari qurilish nazoratini doimiy ravishda rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. So‘nggi yillarda qurilish nazoratini modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflar ilgari surilib, qurilish ishlari hajmining oshishi, qonun buzilishlarining oldini olish va sifatli, xavfsiz obyektlarni barpo etish masalalari dolzarblashib bormoqda.



Shaharsozlik faoliyati arxitektura, qurilish qoidalari va qonunchilik normalariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Davlat qurilish nazorati organlari qurilish ishlari va qonunbuzarliklarni aniqlash, shuningdek, ishlab chiquvchilar va pudratchilarning majburiyatlarini bajarilishini nazorat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 23-sentabrda qurilish industriyasi va qurilish materiallarini ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda qurilish sohasidagi dolzarb masalalar, shu jumladan, sohaga doir standartlar va yondashuvlarni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish, shaharsozlik normalari va qoidalarini muntazam yangilab borish masalalari belgilab berildi[2].

Qurilish nazoratiga oid qonun buzilishlari bo‘yicha raqamlarga e’tibor qaratsak, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining ma’lumotiga ko‘ra, 2023-yil davomida qurilish ishtirokchilari tomonidan mualliflik va texnik nazoratning buzilishi sababli 678 ta holatda litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlarni to‘xtatib turish, tugatish yoki bekor qilish bo‘yicha taqdimnoma kiritilgan. Shuningdek, 519 ta qurilish obyektida sifatsiz qurilish materiallari va buyumlardan foydalanilgani uchun tegishli organlarga taqdimnoma yuborilgan[3].

Yuqoridagilarga ko‘ra, qurilish inshootlaridagi nuqsonlar va kamchiliklarni, loyiha va qurilish qoidalaridan chetga chiqishni aniqlash hamda xavflarning o‘z vaqtida oldini olish maqsadida qurilish nazorati muhim ahamiyatga ega. Bu nazorat qurilish-montaj ishlari va ishlatilgan materiallar sifatining pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik, loyihani belgilangan dizayn yechimlariga muvofiq amalga oshirish va qurilish maydonchasida bajarilgan ishlarning yuqori sifatini ta’minlash uchun zarurdir. Shuningdek, ushbu holatlar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun qonuniy javobgarlikni belgilash muhim. Chunki qurilish me’yorlariga rioya qilmaslik, korrupsiya va huquqbuzarliklar natijasida binolarning jiddiy nosozliklari yuzaga kelishi va ofatlar oqibatida insonlar o‘limiga olib kelishi mumkin.

[2] https://president.uz/uz/lists/view/7564.
[3] https://uza.uz/uz/posts/qurilish-sohasida-davlat-nazorati-kuchaytirilmoqda_639976.

O‘zbekiston Shaharsozlik kodeksida[4] davlat organlari, ijro etuvchi hokimiyat, jismoniy va yuridik shaxslar, ekspert tashkilotlarining shaharsozlik sohasidagi huquq va majburiyatlari belgilangan. Biroq majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilanmagan.


Xususan, Shaharsozlik kodeksining normalarida “taqiqlanadi”, “man etiladi”, “yo‘l qo‘yilmaydi” kabi cheklov va qoidalar belgilangan. Lekin ushbu qoidalarga rioya etmaslikning huquqiy oqibatlari yoki ular uchun huquqiy javobgarlik nazarda tutilmagan.

Shu bois ushbu turdagi qoidalarga rioya etmaslikni ma’muriy huquqbuzarlik sifatida baholash va ular uchun javobgarlikni belgilash maqsadga muvofiq. Bu kabi holatlar uchun javobgarlikning aniq belgilanmasligi ham qaysidir ma’noda qonun buzilishi va korrupsiya uchun zamin yaratishi mumkin deb hisoblaymiz.

Boshqa davlatlarning ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarini o‘rgangan holda aytish mumkinki, O‘zbekistonning Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksidagi birgina 99-moddada bu sohadagi huquqbuzarliklarning barchasini to‘liq qamrab olishi biroz bahsli.

Masalan, Qozog‘istonning Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksining[5] 20-bobi “Arxitektura, shaharsozlik, qurilish faoliyati va uy-joy munosabatlari sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar” deb nomlanib, 312-323[1]-moddalarni o‘z ichiga oladi.

Gruziyaning Fazoviy rejalashtirish, arxitektura va qurilish faoliyati to‘g‘risidagi kodeksining[6] 14-bobi “Qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish bo‘yicha ma’muriy ish yuritish va ijro etuvchi vositalar”ga bag‘ishlangan bo‘lsa, kodeksning 15-bobi “Qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar turlari” deb nomlanadi va 130-138-moddalarni o‘z ichiga oladi.



O‘zbekiston Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 99-moddasi “Shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish” deb nomlanib, unda beshta huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilangan.

Yuqoridagilarga ko‘ra, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 99-moddasiga prim moddalarni kiritish va quyidagi shaharsozlik normalarini buzganlik uchun javogarlikni belgilash va ularni quyidagicha bayon etishni taklif etamiz.

Birinchidan, qurilish-montaj va ta’mirlash ishlarini olib borishda tasdiqlangan qurilish me’yorlari va loyiha hujjatlari talablarini buzish uchun javobgarlikni belgilash.

Qozog‘istonning Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi 313-moddasida shunday huquqbuzarlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining – mansabdor shaxslarga qirq, kichik tadbirkorlik subyektlariga – ikki yuz, o‘rta tadbirkorlik subyektlariga – to‘rt yuz, yirik tadbirkorlik subyektlariga – yetti yuz baravarigacha miqdorda jarima solish va litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish belgilangan.

Ikkinchidan, obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish vaqtida qurilish-montaj, ta’mirlash-tiklash ishlarini belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha hujjatlarisiz amalga oshirish uchun javobgarlikni belgilash.

O‘zbekiston Shaharsozlik kodeksining 60-moddasiga ko‘ra, obyektlar qurilishi tasdiqlangan loyiha hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, “Bosh loyihachi to‘g‘risida”gi nizomda[7] korxonalar, binolar, inshootlar va boshqa obyektlarning qurilishi loyihalar asosida amalga oshirilishi belgilangan. Ammo ushbu talabni bajarmaganlik uchun qonunchilikda javobgarlik belgilanmagan.

[4] https://lex.uz/docs/-5307951.
[5] https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31577399&pos=5787;-29#pos=5787;-29.
[6] https://matsne.gov.ge/ru/document/view/4276845?publication=30.
[7] https://mc.uz/uploads/mcuz_99479420944692.pdf.

Uchinchidan, **ekspertiza ishlarini bajarish va injiniring xizmatlarini koʻrsatishda (qurilish nazoratini olib borishda) Oʻzbekiston qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikni belgilash.**

Shaharsozlik kodeksining 25-moddasida ekspertiza sifatsiz oʻtkazilganligi aniqlangan taqdirda ekspertlar va ekspert tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar boʻlishi belgilangan. Biroq qonunchilikda bunday holat uchun huquqiy javobgarlikni belgilovchi norma mavjud emas.

Qozogʻiston Maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi kodeksining 317-moddasida bunday huquqbuzarliklar uchun:

– arxitektura nazoratini amalga oshirish huquqini beruvchi ekspert guvohnomasining amal qilishini olti oy muddatga toʻxtatib turish bilan jismoniy shaxslarga bir yuz sakson oylik hisob-kitob koʻrsatkichi miqdorida jarima;

– loyihalarni ekspertizadan oʻtkazish huquqini beruvchi ekspert guvohnomasining amal qilishini olti oy muddatga toʻxtatib turish bilan jismoniy shaxslarga bir yuz sakson oylik hisob-kitob koʻrsatkichi miqdorida jarima;

– texnik nazorat oʻtkazish huquqiga ega boʻlgan ekspert guvohnomasining amal qilishini olti oy muddatga toʻxtatib turgan holda jismoniy shaxslarga bir yuz sakson oylik hisob-kitob koʻrsatkichi miqdorida jarima solish belgilangan.

Toʻrtinchidan, **obyektlar va majmualarni qabul qilish va foydalanishga topshirishning belgilangan tartibini buzganlik uchun javobgarlikni belgilash.**

Shaharsozlik normalari va qoidalarining SHNQ 3.01.04-19 Qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish normalarining[8] 2.6-bandida qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish qoidalari buzilgan hollarda davlat qabul hayʼati raislari va aʼzolari, shuningdek, obyektlarni ushbu qoidalarni buzgan holda qabul qilishga majbur qilgan shaxslar Oʻzbekiston qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maʼmuriy, intizomiy va boshqa javobgarlikka tortilishi belgilangan boʻlsa-da, bunday huquqbuzarlik uchun javobgarlik normasi mavjud emas.

Beshinchidan, **noqonuniy qurilish yoki ruxsatsiz qurilish uchun javobgarlikni belgilash.**

2024-yil 17-iyulda davlat rahbari raisligida oʻtkazilgan yigʻilishda qayd etilganidek, oʻtgan bir yarim yilda ekspertizasi yoʻq 2,2 ming obyekt qurilishiga asossiz ruxsat berilgan. 2023-yilda roʻyxatdan oʻtkazilmasdan qurilishi boshlangan 1,6 mingta obyekt aniqlangan[9].

Yigʻilishda ruxsatsiz yoki loyihadan chetga chiqib qilinayotgan qurilishlar boʻyicha jazoni kuchaytirish zarurligi taʼkidlangan.

Oltinchidan, **belgilangan tartibda foydalanishga topshirilmagan obyektlar va majmualardan foydalanish uchun javobgarlikni belgilash.**

Oʻzbekiston Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi “Qurilish sohasiga oid yagona maʼmuriy reglamentlarni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 200-qarori bilan tasdiqlangan



[8] https://mc.uz/uploads/mcuz_9035279942583.pdf.
[9] https://president.uz/uz/lists/view/7407.

Qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektdan foydalanish uchun ruxsatnoma berish boʻyicha davlat xizmatlari koʻrsatishning ma'muriy reglamentining[10] 1-bob 3-bandida qurilish-montaj ishlari tugallangan bino va inshootlardan ruxsatnomasiz foydalanish taqiqlanishi belgilangan.

Yettinchidan, **tasdiqlangan qurilish loyihasini ruxsatsiz oʻzgartirish yoki undan chetga chiqqanlik uchun javobgarlikni belgilash.**

SHNQ 3.01.01-03 qoidalarining[11] 3.1-bandiga muvofiq qurilish-montaj ishlarini tasdiqlangan qurilishni tashkil etish va ishlab chiqarish loyihalarisiz olib borish man etiladi. Qurilishda tashkil etish loyihasi va ishlab chiqarish loyihalarida qabul etilgan fikrlardan, ularni ishlab chiqargan va tasdiqlagan tashkilotlarning kelishuvisiz chetga chiqishga ruxsat etilmaydi.

Sakkizinchidan, **buyurtmachining qurilgan obyektlarni qurilish normalari va qoidalari talablari buzilgan holda foydalanishga qabul qilib olganligi uchun javobgarlikni belgilash.**

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-qarori bilan tasdiqlangan Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati toʻgʻrisidagi nizomning[12] 7-band d-kichik bandida qurilish normalari va qoidalari talablari buzilgan holda qurilgan obyektlar foydalanishga qabul qilib olingani uchun javob berishi belgilangan.

Toʻqqizinchidan, **buyurtmachi xizmati va pudratchi tashkilot tomonidan mualliflik nazorati olib borish boʻyicha shartnoma tuzilmasdan obyektda qurilish olib borganlik uchun javobgarlikni belgilash.**

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-qarori bilan tasdiqlangan Qurilish obyektlarida mualliflik va texnik nazorat olib borish tartibi toʻgʻrisidagi[13] nizomning 3-bob 4-bandida mualliflik nazorati olib borish boʻyicha shartnoma tuzilmasdan obyektda qurilish ishlari boshlangani aniqlansa, buyurtmachi xizmati va pudratchi tashkilot amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Oʻninchidan, **pudratchilarning qurilish nazoratiga oid talablarni bajarmaganligi uchun javobgarlikni belgilash.**

Shaharsozlik kodeksining 17-moddasida buyurtmachining texnik nazoratiga oid, ishlab chiquvchining mualliflik nazoratiga oid qonuniy talablarini hamda Oʻzbekiston Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi huzuridagi qurilish sohasidagi nazorat boʻyicha hududiy inspeksiyalarning qonuniy talablarini bajarishi majburiyligi beglilab qoʻyilgan.

Aksariyat hollarda faqat texnik nazoratni amalga oshiruvchi shaxslar huquqiy javobgarlikka tortilmoqda. Shu bois obyektni sifatli qurib yakunlash uchun pudratchining mas'uliyatini va javobgarligini oshirish zarurati yuzaga kelmoqda. Majburiyatni bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilash pudratchining javobgarligini oshirishga yordam beradi va qurilish jarayonining yuqori sifatda amalga oshirilishiga imkon yaratadi. Qurilish nazoratiga oid talablarning bajarilmasligi obyektning xavfsizligi va sifatiga salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin, bu esa nafaqat qurilish jarayonini, balki uning natijalarini ham xavf ostiga qoʻyadi.

Bundan tashqari yuqoridagi ma'muriy javobgarlikni belgilash taklif etilayotgan qoidalarni buzish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qoʻllanganidan keyin sodir etilgan boʻlsa, Jinoyat kodeksining 229^3-moddasida jinoiy javobgarlikni belgilash, ushbu harakatlar odamning oʻlimiga yoxud boshqa ogʻir oqibatlar kelib chiqishiga sabab boʻlsa, ozodlikni cheklash yoxud ozodlikdan mahrum qilish jazolarini belgilash maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida ta'kidlash oʻrinliki, ushbu sohadagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning takomillashtirilishi va qonunchilikka qoʻshimchalar kiritilishi shaharsozlik faoliyatida koʻpayib borayotgan noqonuniy qurilishlarning oldini oladi. Shu qatorda tasdiqlangan bosh rejalarga rioya etilishini ta'minlab, qurilish sifatini oshirishga hamda huquqbuzarliklar kamayishiga xizmat qiladi.

Kamola ABDURAXMATOVA,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
tayanch doktoranti

[10] https://lex.uz/docs/5970701.
[11] https://mc.uz/uploads/mcuz_018190527978.pdf.
[12] https://lex.uz/docs/5429356.
[13] https://lex.uz/ru/docs/5429356?ONDATE=25.11.2023&ONDATE2=22.07.2022&action=compare.